SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 2
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING AXBOROT ISTE’MOLI MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

To‘xtayeva Muqaddas Olimovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich va maktabgacha pedagogika oliy maktabi Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya
Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida axborot iste’moli madaniyatini yuksaltirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati va yo‘nalishlari haqida ma’lumotlar berilgan. Intellektual filtr metodi orqali ma’lumotlarni tahlil qila olish, shuningdek o‘quvchilarning mustqil qilgan tahlil bilan o‘rtasida farq ko‘rsatgichlari aytib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar
Boshlang‘ich sinf, ona tili metod, sun’iy intellekt, texnologiyalar, axborot iste’moli, madaniyat.

Kirish qism: Sun’iy intellect (Artificial Intelligence, AI) texnologiyalari XXI asrning eng muhim innovatsiyalaridan biri bo‘lib, ular jamiyatning deyarli barcha sohalarini, shu jumladan ta’limni ham tubdan o‘zgartirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 12-apreldagi PF-132-sonli Farmoni [2], “Ta’lim sifatini oshirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish talablariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4868-sonli Qarori [1] hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda AI texnologiyalarini ta’limga joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Boshlang‘ich ta’limda AI dan foydalanish bir qator muhim afzallikarni beradi: shaxsga moslashtirilgan ta’lim (har bir bola o‘z sur’atida o‘rganadi), doimiy feedback (AI tizim bolaning xatolarini darhol aniqlaydi va tuzatadi), o‘qituvchi vaqtini tejash, motivatsiyani oshirish (o‘yin elementlari va interaktivlik), ob’ektiv baholash (AI tizimlar xolis va izchil baholaydi). Biroq, AI texnologiyalarini to‘g‘ri va pedagogik jihatdan asoslangan holda qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism: Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va raqamli kommunikatsiya vositalarining ommalashuvi zamonaviy jamiyatimizda, ishlab chiqarishda, ta’lim sohasida bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Bugungi kunda yoshlarimiz axborot oqimlari, raqamli resurslar va media kontentlar bilan bevosita aloqda

bo‘lmoqda. Mazkur holatda tra’lim tizimi oldiga nafaqat zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallatish, balki o‘quvchilarda axborotni ongli qabul qilish, uni tahlil qilish, baholash va mas’uliyat bilan iste’mol qilish madaniyatini shakllantirish kabi dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda raqamli savodxonlik shunchaki kompyuterni yoqish va o‘chirish yoki o‘yin o‘ynash bilan cheklanib qolmaydi, aksincha, u axborot qidirish, uni tahlil qilish, undan xavfsiz foydalanish va raqamli muhitda ijodiy yondashuvlarni qo‘llash qobilyatlarini o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich maktab davri bolaning dunyoqarashi va asosiy ko‘nikmalari shakllanadigan davrdir, shuning uchun bu bosqichda raqamli madaniyat asoslarini to‘g‘ri o‘rgatish ularning kelajakdagi intellektual salohiyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida raqamli savodxonlikni rivojlantirish quyidagi asosiy yo‘nalishlar orqali amlaga oshiriladi:

1.Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan tizimli foydalanish: darslar davomida kompyuterlar, planshetlar, interaktiv doskalar, elektron doskalar va multimedia materiallaridan foydalanish o‘quvchilarga o‘quv mazmunini tez va oson o‘zlashtirishga yordam beradi. Vizual va audio materiallar bolalarning diqqatini jamlashda muhim rol o‘ynaydi.

2. Ta’lim dasturlari va elektron resurslardan foydalanish: boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan ta’lim dasturlari, onlayn platformalar va elektron mashqlar raqamli savodxonlikni rivojlantirishning samarali vositalari.

3.O‘yinga asoslangan o‘rganish usullaridan foydalanishh: raqamli o‘yinlar va interaktiv mashg‘ulotlar o‘quvchilarning darslarga qiziqishini oshiradi. O‘yinga asoslangan o‘qitish texnologiyalari o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini, tez qaror qabul qilish va muammolarni hal qila olishini rivojlantiradi.

4.Axborot xavfsizligi va internet madaniyatini shakllantirish: boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga internetdan to‘g‘ri foydalanish, zararli ma’lumotlardan himoya qilish va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha asosiy bilimlar berilishi kerak.

5.O‘qituvchilarning kasbiy malakasini rivojlantirish: boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari zamonaviy raqamli texnologiyalarni yaxshi bilishlari va ularni o‘qitish jarayonida samarali qo‘llay olishlari kerak. O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi o‘quvchilarning raqamli savodxonligini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

6.Ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash: ota-onalar farzandlarining texnologiyalardan foydalanishini kuzatib boorish va ularga rahbarlik qilish orqali ushbu jarayonning samaradorligiga hissa qo‘shadilar.

Adabiyotlar tahlili: Pedagogika va metodika sohasida kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ta’limga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish masalalari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Axborotlashgan jamiyatda yosh avlodning media makon bilan to‘g‘ri muloqotini yo‘lga qo‘yish muammosini tadqiq etgan M.Usanova va M.Choriyeva o‘z ishlarida o‘quvchilarda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyatini asoslab berishgan. Ularning fikricha, raqamli axborot oqimining jadallashishi o‘quvchilarda ma’lumotlarni saralash va ularga tanqidiy yondashish kompetensiyalarini erta yoshdan boshlab rivojlantirishni talab etadi [4]. Shuningdek, X. G‘. Raimjonova va M.V.Xalimovalar global internet tarmog‘idagi filtrlanmagan ma’lumotlar yosh o‘quvchilarning dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini

ta’kidlab, ta’lim tizimida axborot xavfsizligi va iste’mol madaniyatini yuksaltirishning metodik yechimlarini taklif etishgan [3]. Boshlang‘ich ta’limning o‘ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, raqamli texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etish masalalari xalqaro miqyosda ham keng muhokama qilinmoqda. Xususan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida raqamli savodxonlikni rivojlantirish yo‘llarini o‘rgangan tadqiqotlarda “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida kichik yoshdagi maktab o‘quvchilariga internet madaniyati va raqamli fuqarolik asoslarini o‘rgatish metodikasi tahlil qilingan. Raqamli platformalarning ta’limiy imkoniyatlarini baholagan olimlar boshlang‘ich ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi va ularda faqatgina axborot olish emas, balki mantiqiy va kreativ fikrlashni shakllantirishga xizman qilishi lozimligini ko‘rsatib o‘tishgan. So‘nggi yillarda ta’lim tizimiga sun’iy intellekt (AI) elementlarini kiritish bo‘yicha yangi ilmiy yondashuvlar yuzaga keldi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt asosida boshlang‘ich sinflarda o‘qitish jarayonini tashkil etish o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish va intellektual salohiyatini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, ushbu yo‘nalishdagi zamonaviy ilmiy-metodik manbalarda qayd etilishicha, sun’iy intellekt texnologiyalarini ona tili ta’limiga tizimli integratsiya qilish o‘quvchilarning axborot muhitini to‘g‘ri tartibga solishga xizmat qiladi [5]. Mazkur metodik yondashuv doirasida ta’limiy chatbotlar va intellektual tizimlar nafaqat til qoidalarini o‘rgatuvchi, balki o‘quvchilarning axborot bilan to‘g‘ri ishlash madaniyatini hamda nutqiy savodxonligini yuksaltiruvchi samarali pedagogik vosita sifatida baholanishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [5].

Metodologiya: Biz boshlang‘ich sinf ona tili darslarida **“Intellektual filtr”** metodidan foydalanishimiz mumkin. Bu metod o‘quvchilarda nafaqat til qoidalarini mustahkamlashga, balki bugungi raqamli texnologiyalar asrida eng muhimi bo‘lgan tanqidiy fikrlash va axborotni saralash ko‘nikmasini o‘stirishga xizmat qiladi. Bu metodning maqsadi o‘quvchilar berilgan internetdagi ma’lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri olmasdan, ularni sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida tahlil qilishga va to‘g‘ri ax”borot iste’moli madaniyatini shakllantirishga o‘rgatadi. Sinf xonasidagi smart-doska yoki o‘qituvchining kompyuteri orqali AI chatbot dasturiga kiradi. O‘qituvchi o‘quvchilarga internetdan olingan ichida shubhali ma’lumotlari bor, imloviy xato yozilgan ma’lumotlarni doskada ko‘rsatadi va o‘quvchilarga tahlil qilishni buyuradi. O‘quvchilar avval o‘zlari xatolarni topishadi va tahlil qilishadi. Har bir o‘quvchi o‘z taxminini aytgandan so‘ng, o‘qituvchi matnni AI chatbotiga kiritadi va imloviy va punktuatsion xatolarni o‘quvchilarga ko‘rsatib beradi.

Tahlil va natijalar: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash endi yuzaga chiqayotgan paytda ular hali ma’lumotlarni mustaqil tahlil qila olmaydi. Biz pedagog o‘qituvchilar o‘quvchilarga axborot olish, ulashish, foydalanish madaniyatini o‘rgatishda albatta sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalansak ko‘zlangan maqsadga erishamiz. O‘quvchilarning o‘zi mustaqil tahlil qilishi orqali ma’lumotlarning ilmiylik jihatdan talab darajasida ekanligini aniqlash 40-50% ni ko‘rsatsa, “Intellektual filtr” metodi yordamida foydalanilgan sun’iy intellekt texnologiyalari orqali tahlil qilingan ma’lumotlar 70-80% o‘quvchilarga ma’lumotlarning aniq va to‘g‘ri o‘rganishiga yordam berasdi.

Xulosa: Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimida samarali qo‘llanilishi uchun axborot madaniyatining shakllanishi muhimdir. Bu madaniyat texnologiyalardan

oqilona foydalanish, axborot xavfsizligini ta’minlash va ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish uchun zarurdir. Axborot madaniyatini rivojlantirishda o‘qituvchilarni tayyorlash, ta’lim dasturlarini yangilash va kiberxavfsizlikni ta’minlash choralari alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Ta’lim sifatini oshirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish talablariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4868-sonli Qarori. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Sun’iy intellekt sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 12-apreldagi PF-132-sonli Farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

3. Raimjonova X. G‘., Xalimova M. V. Axborot iste’moli madaniyatlari: Yangi davr muammolari va yechimlar // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2024. – № 5. – B. 112-118.

4.Usanova M., Choriyeva M. O‘quvchilarda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish // Pedagogik islohotlar va innovatsiyalar jurnali. – 2025. – Vol. 14, No. 2. – B. 45-51.

5.Xadjimusayeva N. N., To‘xtayeva M. O. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish: O‘quv-uslubiy qo‘llanma / N. N. Xadjimusayeva, M. O. To‘xtayeva; O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. – Toshkent: Metodist Nashriyoti, 2026. – 56 b.